



Ota-ona huquqlarini raqamli muhitda amalga oshirish: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan oila va bola huquqlarining yangi talqini.



Toremuratova Nazokat Shuxratjan qizi

Yurisprudensiya (Biznes huquqi)

4-kurs A patok talabasi

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Email.

Annotatsiya: Ushbu tezis “Ota-ona huquqlarini raqamli muhitda amalga oshirish: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan oila va bola huquqlarining yangi talqini” mavzusiga bag‘ishlangan. Bunda ota-ona va bola huquqlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi normativ asoslari tahlil qilingan holda ularni raqamli muhitda xususan internet tarmoqlari, elektron xizmatlar shuningdek onlayn platformalarda amalga oshirilishi masalalari, ota-ona huquqlarini amalga oshirishda texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish hamda ushbu vaziyatlardada kelib chiqadigan huquqiy muommolar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ota-ona huquqlari, bola huquqlari, raqamli muhit, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, elektron platformalar, kibertahdid, kiberbulling, raqamli muhit savodxonligi,

Kirish: Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelgan. Shu qatorda oila, ota-ona hamda bola huquqlari ham bundan mustasno emas. Albatta O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ota-ona va bola huquqlarini kafolatlangan lekin shunga qaramay ularning raqamli muhitda xususan internet, elektron xizmatlar hamda onlayn platformalarda amalga oshirilishida hozirgi kunda yangi talqinlarni talab qiladi. Shu sababli ota-ona huquqlarini raqamli muhitda amalga oshirish va himoya qilish hamda keng ommani jalb qilish masalarini o‘rganish dolzarbdir.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ota-ona huquqlari hamda bola huquqlari keng va batafsil ifodalangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobida oila, bolalar va yoshlar haqida keltirib o‘tilgan. Ushbu bobning har bir moddasida ota-onalar va bolalarning huquqlari, majburiyatlari, ota-onaning ma’suliyati hamda oilaning muhofazasi shuningdek davlat tomonidan amalga oshiriladigan shart-sharoitlar belgilangan. Masalan 76-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.”⁹

Shuningdek ushbu bobda ota-onalar va ularning o‘rmini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburlar deb ota-onalarning majburiyatlari keltirib o‘tilgan. Konstitutsiyamizda davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishi hamda tarbiyasi shuningdek ta’lim olishi ya’ni har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi deb takidlangan. Ota-onalarning majburiyatlari qatorida bolalarning ham majburiyatlari keltirib o‘tilganini ham ko‘rishimiz mumkin. Bunda voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburlar. 71-modda. Ota-ona huquq va majburiyatlarining tengligi “Ota-ona o‘z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar (ota-onalik huquqlari). Ushbu bobda nazarda tutilgan ota-onalik huquqlari bolalar o‘n sakkiz yoshga to‘lganlarida (voyaga yetganda), shuningdek voyaga yetmagan bolalar nikohga kirganlarida hamda qonun bilan belgilangan boshqa hollarda bolalar voyaga yetmasdan to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lganlarida tugaydi”.¹⁰

Demak O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda oila va bola huquqlari raqamli muhitda ta’lim-tarbiya olish, xavfsizlik va sha’ni qadr qimmatni himoya qilishni nazarda tutadi. Ota-onalar farzandlarining internetdagi faoliyatini nazorat qilish, zararli kontentlardan himoyalash va farzandlarining raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha majburiyatlarga ega. Raqamli muhitda ota-onalarning huquqlarini amalga oshirishning asosiy jihatlaridan biri: Bolalarni raqamli tahdidlardan himoya qilish ya’ni har bir ota-onalar farzandlari internetdagi kibertahdidlar, kiberbulling va zararli axborotlardan asrash. Shuningdek ota-ona bola tarbiyasi va ta’limi uchun mas’ul shu qatorda raqamli savodxonligini ham shakllantirib borishi lozim.

Hozirda raqamli muhit ota-onalarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda masalan masofaviy (onlayn) maslahatlar shuningdek ta’lim platformalarida qatnashish, har xil elektron hujjatlar orqali farzandlari uchun kerakli ma’lumotlarni olish hamda farzandlarini masofaviy boshqarishi va nazorat qilish imkoniyatlari ko‘paymoqda. Xalqaro tajribalarga

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <http://lex.uz/docs/-6445145>

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi <http://lex.uz/docs/-104720>



nazar tashlasak hozirgi kunda onlayn maktab jurnallari, baholash tizimlari shuningdek elektron sog‘liqni saqlash kartalari xatto masofaviy maslahatlar ham amalga oshirilmoqda. Shu qatorda O‘zbekistonda ham elektron xizmatlar va raqamli platformalar ota-ona huquqlarini amalga oshirishda cheklangan darajada bo‘lsa ham ishlatilmoqda. Maktablarimizda ta’lim holatlarini kuzatib borish uchun elektron jurnal tizimi asosida olib borilmoqda.

Raqamli muhitning yaxshi tomonlari ustun jihatlari bilan birgalikda albatta xavfli tomonlari hamda muommoli tomonlari ham mavjud. Misol uchun axborot xavfsizli, har bir fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarining maxfiyligi, huquqiy kafolatlarning yetishmasligi. Shu sababli ota-ona huquqlarini himoya qilish uchun ayrim tavsiyalar ishlab chiqildi:

- 1) Elektron hujjatlar va raqamli tizimlarni yanada takomillashtirish, ota-onalar uchun farzandlari haqida to‘liq ma’lumotlarni oson olish imkoniyatini yaratish;
- 2) Onlayn maslahat va masofaviy ta’lim platformalarini rivojlantirish;
- 3) Ota-onalar orasida raqamli muhit savodxonligini oshirish bo‘yicha ishlar olib borish;
- 4) Ota-onalar farzandlari bilan raqamli muhit savodxonligi haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
- 5) Normativ-huquqiy bazani kengaytirish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak yurtimizda raqamli texnologiyalar ota-ona huquqlarini amalga oshirishda kundan-kunga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Har qadamda yangi onlayn platformalar yaratilmoqda. Albatta yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek uchbu raqamli muhit yangi texnologiyalarning yaxshi tomonlari ko‘p bo‘lishi bilan birgalikda tanganing ikkinchi tomoni bo‘lganidek raqamli texnologiyalarning ham kamchiliklar mavjud ya’ni ota-onalardan har qanday kiber xavfni oldini olishni va ma’suliyatni yanada oshirishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ota-ona va bola huquqlarining raqamli talqini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi hamda normativ-huquqiy hujjatlar bilan yanada mexanizmlashtirilishi va mustahkamlanishi lozim. Raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar va elektron tizimlardan foydalangan holda ota-ona huquqlarini amalga oshirish amaliyoti kuchaytirilib, amaliy hayotga yanada ko‘proq jalb qilish hamda bolalar huquqlarini himoya qilishning yangi samarali usullarini joriy etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <http://lex.uz/docs/-6445145>
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi <http://lex.uz/docs/-104720>
- 3) Wikipedia <https://www.wikipedia.org>
- 4) <https://chatgpt.com>